

## FARG'ONADA PREZIDENT QAROR VA FARMONLARI IJROSINI TA'MINLASH BO'YICHA SEMINARLAR O'TKAZILMOQDA

Farg'ona shahridagi viloyat "Tadbirkorlar uyi" majlislar zalida 18-19 sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-109-sonli Farmoni hamda "Kichik biznesni uzlusiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli Qarori ijrosini ta'minlash, uning mazmun-mohiyatini mas'ullarga yetkazish yuzasidan seminar o'tkazildi.

Mazkur seminarlarda Markaziy bank raisining birinchi o'rnbosari Nodirbek Saydullayev, viloyat hokimining birinchi o'rnbosari Xabib Sirojtdinov, viloyat tijorat banklari rahbarlari, shahar va tuman hokimlarining birinchi o'rnbosarlari ishtirok etdi.

Dastlabki kungi seminarda faktoring - pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish xizmati ekanligi, ushbu xizmatdan foydalanish tadbirkorlarga katta imkoniyatlar yaratib berishi, faktoring xizmati orqali realizatsiya qiluvchilarning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi haqida ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, ushbu xizmatda garov ta'minotining talab etilmasligi, savdo aylanmalari tezligini oshirib, talabni o'z vaqtida qondirish imkoniyati yaratilgani ta'kidlandi.

Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning uzlusizligi va barqarorligini ta'minlash, bank va mikromoliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qabul qilingan "Kichik biznesni uzlusiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli Qarori ijrosini joylarda tashkil etish, amalga oshirish mexanizmlari va tadbirkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida taqdimotlar orqali tushunchalar berildi.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-19 17:20:04